

11. Takrorlash. Yuza va perimetr




Yondosh mavzu:
O'zbekiston istirohat bog'lari

To'g'ri to'rtburchak,
kvadrat, perimetr,
yuza



1. a) Sayyoh Amir Temur xiyobonidan "Xalqlar Do'stligi" saroyigacha qancha yo'lni bosib o'tishni rejalashtirgan?



- b) Agar sayyoh 20 minutda 1 km masofani bosib o'tsa, sayohatga uning necha soat vaqti ketadi?



2. Matnni o'qing.

"Xalqlar Do'stligi" saroyi Toshkent shahrida joylashgan.

U 1980-yilda konsertlar va bayram tadbirlarini o'tkazish uchun qurilgan.

Binoning o'ziga xos shakli qadimgi Buxorodan 35 km uzoqlikdagi Varaxsha shahridagi binolarga o'xshash. Saroy kvadrat shaklda bo'lib, har bir tomonining uzunligi 97 m. Binoning to'rtala devori ham bir xil bezatilgan.


Bu saroy shaklini daftaringizga chizing. Tomonlarining uzunliklarini yozib qo'ying. Tasvirlangan binoning perimetri va yuzini toping.

11. Takrorlash. Yuza va perimetr

3. Shakllar orasidan toping:

a) to'g'ri to'rtburchaklar;

b) muntazam ko'pburchaklar.




4. Muntazam ko'pburchaklarning perimetrini toping. Ko'pburchak perimetri formulasini yozing.

Shakl	Uchburchak	Beshburchak	O'nburchak	n -burchak
Tomonlari uzunliklari	7 cm	14 dm	25 m	6 km
Perimetri				

5. Uchburchakning eng kichik tomoni uzunligi 22 dm. Ikkinchi tomoni uzunligi birinchisidan 1 m 4 dm uzun. Uchinchi tomoni uzunligi birinchi va ikkinchi tomonlari uzunliklari yig'indisidan 3 marta kichik. Uchburchakning perimetrini toping.

6. Diagramma bo'yicha savollarga javob bering.



- Istirohat bog'ida chorshanba kuni soat nechada eng ko'p odam bo'lgan? Shanba kuni-chi?
- Shanba kuni soat 11:00 da, chorshanba kuni soat 18:00 da istirohat bog'ida qancha odam bo'lgan?
- Shanba kuni soat 18:00 da chorshanba kuni shu vaqtdagiga qaraganda qancha ko'p odam bo'lgan? Necha marta ko'p bo'lgan? Soat 20:00 da-chi?

11. Takrorlash. Yuza va perimetr



7. Ikki kun ichida bog'ga 800 nafar kattalar va 1 200 nafar bolalar tashrif buyurishdi. Agar bog'ga har kuni bir xil miqdorda sayyohlar kelsa, 7 kun ichida bog'ga qancha odam tashrif buyuradi?



8. Hisoblang.

- a) $(4 \text{ m } 23 \text{ cm} + 42 \text{ dm } 7 \text{ cm}) \cdot 10 : 5$
- b) $800 \text{ m} - 12 \text{ m } 6 \text{ dm} \cdot 5 - 680 \text{ m } 56 \text{ cm} : 4$
- d) $1\,900 \text{ mm} + (420 \text{ cm } 4 \text{ mm} + 16 \text{ dm } 3 \text{ cm } 8 \text{ mm}) : 2$
- e) $78 \text{ km } 340 \text{ m} - 12 \cdot 6 \text{ km } 400 \text{ m}$




9. Istirohat bog'ining ochiq konsert maydonida o'rindiqlar bor. Agar har bir o'rindiqqa 5 kishi o'tirsa, u holda 15 kishi joysiz qoladi. Agar har bir o'rindiqqa 6 kishi o'tirsa, u holda 3 ta o'rindiq bo'sh qoladi. Konsert maydonidagi o'rindiqlar va odamlar sonini aniqlang.



10. Daftaringizga yuzi 36 kv cm bo'lgan uchta to'g'ri to'rtburchak chizing. Ularning perimetrini hisoblang.



11. Tog'ri to'rtburchakning perimetri bo'ylab harakatlanib, hisoblang:
a) soat mili yo'nalishi bo'yicha; b) soat mili yo'nalishiga qarshi.



Har bir holat uchun ifoda yozing. Natijalar bir xil chiqdimi?